



ABUL ABBOS ZAHIRIDDIN AHMAD TEMURTOSHIY

Gadayev Furqat

Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsia: Mazkur maqolada Abul Abbos Zahiriddin Ahmad Temurtoshiyning hayoti va yozgan asarlari, ulamolarning Temurtoshiy haqidagi maqtovlari haqida malumot berdim.

Kalit soʻzlar: Temurtoshiy, Gʻoziy, Roddul Muxtor, Muhibbiy.

Toʻliq ismi: Muhammad ibn Abdulloh ibn Ahmad Xotib ibn Muhammad Xotib ibn Ibrohim Xotib bin Muhammad Xotib Shehabiddin Temurtoshiy Gʻazziy. Oʻz asrining xanafiy shayxlaridan boʻlib, 939-hijriy, 1532-milodiy sanada Falastinning Gʻazo mintaqasida tugʻulgan va shu yerda voyaga yetgan.¹ Baʼzi bir rivoyatlarda Xorazmning Temurtosh qishlogʻida tugʻilgan deb keladi. Lekin Shayx Abdulgʻoniy Nablusiy oʻzining “Alhaqiqotu va-Majoz” kitobida “Bu oilaning bobosi Xorazimdan Falastinga koʻchib kelib, Gʻazoda yashagan va avlodlari shu yerda istiqomat qilishgan” deb keltirganlar.² Alloma Ibn Obidin ham “Roddul Muxtor” kitobida “Eng toʻgʻri soʻz, u kishi bobosi Temurtoshiyga nisbat berilgan” deganlar.³ Qaysi fikr toʻgʻri boʻlsa ham u kishi Temurtoshiy tahallusi bilan mashxur boʻlganlar.

Yoshligi va ilm talabi: U kishi ilm olishni juda erta boshlagan. Birinchi oʻz shahridagi shayxlardan taʼlim olib, Shams Muhammad ibn Mashriqiydan bir qancha fanlardan dars olganlar soʻng ilm talabida Qohiraga toʻrt marta safar qilgan boʻlib oxirgisi

¹ Muhammad Ibn Abdulloh Xotib. “Fatavoi Temurtoshiy”. Tahqiq Dotor Abdulloh Mahmud Abu Hassan. 1-juz. Darul Fath. Ammon. 2014. 19-20 b.

² Muhammad Ibn Abdulloh Xotib. “Fatavoi Temurtoshiy”. Tahqiq Dotor Abdulloh Mahmud Abu Hassan. 1-juz. Darul Fath. Ammon. 2014. 19-20 b.

³ Muhammad Ibn Abdulloh Xotib. “Fatavoi Temurtoshiy”. Tahqiq Dotor Abdulloh Mahmud Abu Hassan. 1-juz. Darul Fath. Ammon. 2014. 19-20 b.



998 hijriy sanada bo‘lgan. U yerda shayx Zayniddin ibn Nujaym hanafiy, Aminiddin ibn Abdula‘l va Mavlo Ali ibn hanafiylardan ta‘lim olganlar. Undan keyin Halabga kelgan. So‘ngra o‘z ona shahriga qaytgan. U kishi ilm boshiga aylangan edi. O‘z asrida hanafiy olimlarining yetakchi bo‘lgan.

Siyosiy va ilmiy hayotning Temurtoshiy shaxsiga ta‘siri

Temurtoshiy shaxsiga ta‘sir ko‘rsatgan bir-biriga o‘xshash holatlar juda ko‘p bo‘lib, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Birinci: O‘sha davrda olimlar yuksak siyosiy-ijtimoiy mavqega ega bo‘lib, har kimni ilm, fiqh va qozilik sohasiga kirishga undagan. Temurtoshiy G‘azoda muftiylik lavozimiga tayinlangan bo‘lib, bu uning kitob boshidagi so‘zlaridan yaqqol ko‘rinib turadi: “Yoshligimning eng gullab-yashnagan chog‘ida G‘azoda fatvo berishlik bilan sinaldim” degan. Temurtoshiy o‘z davrida muhim mavqega ega edi.

Ikkinchi: Ulamolarning odamlar orasida obro‘si yuksak va ta‘sir qilish qobiliyati kuchliligi tufayli amirlar va hokimlarning zarari va adolatsizliklaridan himoyalangan bo‘lgan.

Uchunchi: O‘sha davr olimlari bilim va qobiliyatining kuchliligi tufayli fikr yetakchisi bo‘la oldilar. Ular odamlarning fatvo so‘rashi uchun boshpana bo‘ldi va Temurtoshiy odamlarning savollariga javoban turli xil kitoblar yozdi.

Nihoyat, Temurtoshiy fatvo berish, o‘rgatish va yozish orqali odamlar orasida ilm yoydi, Alloh taoloning shariatiga muvofiq fatvolar chiqardi va insonlarni Alloh taolo buyurgandek yashashga undadi. Alloh taolo u zotni eng yaxshi mukofot bilan siylasin va rahmatini keng qilsin.

Yozgan asarlari

Muhibbiy: “U ajoyib va puxta asarlar yozgan”⁴ deganlar.

Fiqhga oid asarlari:

⁴Muhammad Amin ibn Fazlillah Muhibbiy. “Xulosatul osor”-Damashq. Al-Matbaatul vahbiyyah. 2009 4-juz. 19-b.



1. “Tanver ul-Absor va Jame ul-Behar” Muhibbiy “Bu asar fiqhda juda qimmatli va foydalarni jamlagan matn. Undagi masalalar juda sinchikovlik bilan o‘rganib chiqilgan”⁵ deganlar. So‘ng bu kitobni Temurtoshiyning o‘zlari ikki mujallad qilib sharhlaganlar va “Manhul G‘offar” deb nomlaganlar. Bu kitobni sharhlaganlari orasida 1088 yilda vafot etgan Muhammad Alouddin al-Haskafiy ham bor edi. U kishi kitoblarini “Ad-Durr al-Muxtor Sharhi Tanvir al-Absor” deb nomlaganlar.
2. “Manhul G‘affor Sharhi Tanvir al-Absor” Hoji Xalifa, Muhibbiy va Bag‘dodiylar zikr qilgan. Muhibbiy: “U mazhabning eng foydali kitoblaridandir”⁶ degan. Unda shayxul-islom Xayriddin ar-Ramliy tomonidan yozilgan foydali izohlar mavjud.
3. “Sharh ul-Kanz” Hofiziddin Nasafiyning “Kanz ad-Daqoiq” kitobiga yozgan sharhlari. Bu kitob imyon kitobigacha yozilgan.
4. “Qeta’tu min Sharhul Viqoya”. Bu kitob Mahmud ibn Sodr ash-Shareaning “Viqoyat ar-Rivoyah fi Masail al-Hidoya” kitobining sharhidir.
5. “Xoshiyat Ala Durar va al-G‘aror”ga izoh”. Unda Haj kitobining oxirigacha yetib kelgan.
6. “Ea’natul Haqir li-Ladil Faqir fi Fru’i Fiqhul Hanafiy”. Zarkaliy bu qo‘lyozma ekanligini aytgan.
7. “Mu’in al-Muftiy Fi Javobi Mustafiy”. Muhibbiy bu kitobni juda katta hajmdaligini aytib o‘tgan. Zarkaliy bu qo‘lyozma ekanligini aytgan.
8. “Musa’fah al-Hukam Ala al-Ahkom”
9. “Tuhfa al-Aqron”
10. “Muvahib ar-Rohman”
11. “Fatavoi Temurtoshiy” ikki mujallad
12. “Rislatu fi Mas’h Ala Xuffayn”

⁵ Muhammad Amin ibn Fazlillah Muhibbiy. “Xulosatul osor”-Damashq. Al-Matbaatul vahbiyyah. 2009 4-juz. 19-b. Ismoil Bosha Bog‘dodiy. “Hadiyyatul Arifin”. Muassasatu Tarixul Arobiy. 2006. 2-juz. 262-b.

⁶Muhammad Amin ibn Fazlillah Muhibbiy. “Xulosatul osor”-Damashq. Al-Matbaatul vahbiyyah. 2009 4-juz. 20-b



13. “Rislatu fi Nuqud”
14. “Rislatu fi Tajviyz”
15. “Rislatu fi Nikah”
16. “Rislatu fi Vuquf”
17. “Rislatu fi Nafais fi Ahkamil Kanais”
18. “Rislatu fi Bayan Javazil Istenafati fil Xutbah”
19. “Rislatu fi Bayan Ahkamil Qiroati Xolfal Imam”
20. “Rislatu fi Duxulil Hammam”
21. “Rislatu fi Qozo”
22. “Rislatu fi Muzaroah”
23. “Fatavoi Temurtoshiy”

Usuli fiqhga oid asarlari:

24. “Al-Vusul ila Qovaidil Usul”
25. “Sharh al-Manor li-Nasafiy”
26. “Sharh Muxtasar ul-Manor”

Aqidaga oid asarlari:

27. “Sharh al-Lamiyyah fi Kalam
28. “Manzumatu fi Tavhid va Sharhiha”
29. “Rislatu fi Tasavvuf”
30. “Rislatu fi Ismat ul-Anbiya”
31. “Manzumah at-Tasavvuf”
32. “Sharh al-Manzumah”

Nahv va sarfga oid asarlari:

33. “Kitob fi Sharh al-Avamil li-Jurjoniyy li-Nahv”
34. “Qitadun min Sharh al-Qotr”

Turli xil mavzularga oid risolalari:

- “At-Tansisu ala Adad”



“Sharhul Vahbaniyyah”

“Rislatu fi al-Karohiyyah”

Ulamolarning Temurtoshiy haqidagi maqtovlari:

Muhibbiy u zot haqda shunday deydi: “O‘z davrining faqihlarining yetakchisi, u zot ulug‘ fazilatli, xulqi g‘zal, xotirasi kuchli, o‘ta ilimli imom edi. Qisqacha aytadigan bo‘lsak, qilgan ishlarining yakunida u zotga tenglashadigan biror kishi topilmagan”. Yana davom etib “U ilmlarda peshqadam edi, odamlar unga fatvolar bilan murojaat qilishar, u zot esa ajoyib va nafis asarlar yozar edilar”.⁷deganlar.

1127-yilda vafot etgan Abu al-Ma’ali Muhammad ibn Abdurrahmon ibn Al-G‘oziy muallif haqida shunday degan: “Imom, olim, faqih, hanafiy mazhabining shayxi”.⁸

Umar Rizo shunday degan: “Usuliy faqih, mutakallim”.

Xayriddin az-Zarkaliy: “O‘z asrining hanafiy mazhabining shayxi” degan.

Mustafo Dabbog‘ esa: “U o‘z davrining hanafiy faqihlarining boshlig‘i edi” deganlar.

Foydalanilgan manbalar:

1. Muhammad Amin ibn Fazlillah Muhibbiy. “Xulosatul osor”-Damashq. Al-Matbaatul vahbiyyah. 2009.
2. Ismoil Bosha Bog‘dodiy. “Hadiyyatul Arifin”. Muassasatu Tarixul Arobiy. 2006.
3. Muhammad Ibn Abdulloh Xotib. “Fatavoi Temurtoshiy”. Tahqiq Dotor Abdulloh Mahmud Abu Hassan. 1-juz. Darul Fath. Ammon.
4. Muhammad ibn Abdurrohman. “Devonul Islom”-Bayrut-lubnan. Darul Kutubul Ilmiyyah. 1990.

⁷Muhammad Amin ibn Fazlillah Muhibbiy. “Xulosatul osor”-Damashq. Al-Matbaatul vahbiyyah. 2009 4-juz. 19-20-b.

⁸Muhammad ibn Abdurrohman. “Devonul Islom”-Bayrut-lubnan. Darul Kutubul Ilmiyyah. 1990. 2-j. 24-b.